

VII. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-dekabrda "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" gi 539- son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni

(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)



Yuridik shaxs:


Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka yega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga yega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi,

(2025- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2025- yil 1- yanvar holatiga 34,3 mingtani tashkil etdi, ulardan 28,3 mingtasi tadbirkorlik subyektlari.


Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 33,9 foiz, sanoat – 16,4 foiz, qurilish – 6,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 5,4 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Farg'ona shahrida – 17,7 foiz, Qo'qon shahrida – 10,2 foiz, Marg'ilon shahrida – 7,7 foiz, Oltiariq tumanida – 5,7 foiz va Uchko'prik tumanida – 5,1 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




2025- yil 1- yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 34 302 tani tashkil etdi, ulardan 28 076 tasi kichik korxonalar va mikrofirmalar. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni quyidagicha bo'ldi: savdo – 11 641 ta sanoat – 5 615 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 1 237 ta, qurilish – 2 061 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 1 850 ta, tashish va saqlash – 1 339 ta, axborot va aloqa – 548 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1 220 ta, boshqa turlari – 8 791 ta.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'tgan yilga nisbatan o'sish surati, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (100,2 %), savdo (79,8 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (83,5 %), tashish va saqlash (85,1 %), qurilish (69,4 %), sanoat (72,0 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (68,7 %), axborot va aloqa (60,8 %) va boshqa turdagi xizmatlar (92,5 %) sohalariga to'g'ri keladi.

1- yanvar holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimida soni va o'sish surati, %

(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Tadbirkorlik subyektlari soni

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi




2025- yil 1- yanvar holatiga 28 291 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar soni, shundan xususiy korxonalar – 5 164 ta, oilaviy korxonalar - 3 730 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyat – 19 112 ta, aksiyadorlik jamiyati - 43 ta va boshqa turdagi korxonalar - 242 tani tashkil etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'ladilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yangi tashkil yetilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(yanvar-dekabr oylarida)




2024-yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 6 153 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Jumladan: Yozyovon tumani (79 taga), Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 32 taga ko'paygani bilan yanvar izohlash mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, 2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra birlikda)

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(1-yanvar holatiga ko'ra birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha soni

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra birlikda)




Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Farg'ona shahrida (17,6 foiz), Qo'qon shahri (10,5 foiz), Marg'ilon shahri (8,1 foiz), Oltiariq (6,0 foiz) va Uchko'prik (5,2 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 41,1 foiz, sanoat– 19,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 4,2 foiz, qurilish – 7,2 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 6,5 foiz, tashish va saqlash – 4,7 foiz, axborot va aloqa– 1,9 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 3,7 foiz, boshqa turlari – 10,9 foiz.


Hududlar bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 1- yanvar holatiga ko'ra birlikda)



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar

2025- yil 1- yanvar holatiga ro'yxatdan o'tgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar soni 828 tani tashkil etdi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 122 taga yoki 117,3 %ga o'sgan.



Davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar to'g'risida ma'lumot

2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 190 tasi qo'shma korxonalar, 266 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.


Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy va qo'shma korxonalar soni to'g'risida ma'lumot
(2025 – yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



2025- yil 1-yanvar holatiga chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 456 ta korxonalardan 190 tasi qo'shma korxonalar, 266 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi

(1- yanvar holatiga ko'ra, yillar kesimida, birlikda)



Oilaviy korxonalar


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2025-yilning 1- yanvar holatiga 7 800 tani tashkil etib, ulardan 3 730 tasi yoki 47,8 % faoliyat yuritmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar


(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha soni,
(2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)**



Oilaviy korxona – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.